



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-yanvar

19-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 3-yanvardagi “Farg‘ona viloyatida tashkillashtirilgan tartibda mehnat migratsiyasini amalga oshirish, qaytib kelganlarni bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1-11-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Viloyat hokimining 2025-yil 3-yanvar kunidagi Farg‘ona viloyatida tashkillashtirilgan tartibda mehnat migratsiyasini amalga oshirish, qaytib kelganlarni bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlari samaradorligini oshirish, sohada yagona vertikal boshqaruv tizimini joriy etish hamda mas’ul davlat organlarining aniq vazifalari va javobgarligi belgilab berish hamda “Chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo‘lgan fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratish” haqidagi 1-11-0-Q/25 sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida 2024-yil 7-dekabr kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda belgilab berilgan vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 16-dekabrda topshiriqlari hamda viloyat hokimining 2025-yil 3-yanvar kunidagi 1-11-0-Q/25 qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona tumanida 2025-yilda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini amalga oshirish, xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari bo‘yicha “yo‘l xaritasi” **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qarorda hamda “Yo‘l xaritasi”da belgilangan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali tashkil etish maqsadida **2-ilovaga** asosan tuman shtabi (namunaviy) tarkibi tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov, xorijiy davlatlardagi hududlar rahbarlari va hamkorlar bilan bevosita muloqot qilgan holda, chetda ishlayotgan fuqarolarga munosib sharoitlarni yaratish, yuqori daromadli mehnat bilan band qilish;

uch hafta muddatda kam ish haqi olayotgan migrantlarni tahlilini qilsin va ular ishlayotgan korxonalariga borib, xorijdagi monomarkazlarni jalb etgan holda ularni o‘qitish va kasbga tayyorlash orqali daromadlarini oshirish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov, Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (D.Xomidov), Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona tumani bo‘limi (M.Alijonov) bilan birgalikda:

ikki hafta muddatda har bir mahalla xorijga ketgan va qaytgan fuqarolarni xatlovdan o‘tkazishni tashkil qilsin va muntazam ravishda ularning alohida hisobini yuritib borsin;

bir oy muddatda xorijga ketgan va qaytgan fuqarolar hisobini yuritishni to‘liq raqamlashtirib, mahallalar yettiligi, ta’lim va bandlik tashkilotlari bilan birgalikda ushbu sohada yuklatilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha amaliy ishlarni boshlasin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (N.Sobirov) tuman hokimligi bilan birgalikda xorijdan qaytgan har bir migrantni bo‘sh ish o‘rinlari va boshqa ishlarga ishga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

Bunda, yuqoridagi mas’ullar xorijdan qaytib kelgan fuqarolarga bir oy ichida ish taklif etilmagan bo‘lsa, qonunchilikda belgilangan tartibda jazo chorasi qo‘llanilishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosarlari O.Abduraximov, I.Toshpo‘latov, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (N.Sobirov) bilan birgalikda:

uch hafta muddatda tumanda va xorijda 2025-yil uchun qaysi kasb egalariga va mutaxassislariga talab yuqori bo‘lishini o‘rganib chiqib, viloyat hokimligiga axborot kiritilsin;

bir oy muddatda talab yuqori mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni har bir ta’lim tashkiloti, mahalla yettiligi va mahalliy hokimliklarga yetkazsin hamda 3-5 yil uchun prognozlarni har yilning yanvar oyida yetkazib borishni tashkil qilsin.

8. Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov, Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona tuman bo‘limi (M.Alijonov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (N.Sobirov) bilan birgalikda:

bir oy muddatda oliy ta’lim muassasalaridagi nemis tilidan “S-1” sertifikatga ega bitiruvchi kurs talabalarini umumta’lim maktablariga, texnikumlarga, kasbga o‘qitish markazlariga ishga joylashtirib, yoshlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘ysin;

texnikumlarda “dual ta’lim” tizimini joriy etish bo‘yicha oddiy, sodda tilda metodik qo‘llanma tayyorlasin;

2025-yil 1-martga qadar texnikum direktorlari va ish beruvchilar uchun “dual ta’lim” tizimining mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan o‘qishlar tashkil etsin.

9. Tuman hokimining o‘rinbosarlari O.Abduraximov, I.Toshpo‘latov, Savdo-sanoat palatasi hududiy bo‘limi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi bilan birgalikda:

o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini o‘qitish bo‘yicha birlashtirilgan oliy ta’lim muassasalari hamda Savdo-sanoat palatasi 1 ta tanlab olingan texnikumda tashkil etsin, shuningdek, tajriba asosida 2025-yil 1-martga qadar qo‘shimcha 4 ta texnikumda xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etib, yiliga 260 nafardan mutaxassis tayyorlanishini yo‘lga qo‘ysin.

Bunda, ushbu texnikumlarga xorijdan 2 nafardan (jami 8 nafar) o‘qituvchi olib kelish, yangi kasblarni o‘qitishga mos uskunalar bilan jihozlash, o‘quvchilarga stipendiya berish, har birini bittadan ishlab chiqarish yoki boshqa korxonaga birlashtirish, ta’lim jarayonini “dual ta’lim” shakli asosida tashkil etish choralarini ko‘rsin.

10. Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (N.Sobirov) bilan birgalikda 2025-yil mart oyiga qadar yuqoridagi texnikumlarda 1 ming nafar o‘quvchini yangicha o‘qitish bilan qamrab olgandan keyin ushbu tajribani ko‘paytirish bo‘yicha aniq mexanizmlari bilan taklif kiritsin.

11. Tuman hokimining o‘rinbosarlari O.Abduraximov, I.Toshpo‘latov birgalikda:

bir oy muddatda fuqarolarni chet tillariga o‘qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazlarini o‘quv dasturlarini mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga moslashtirsin va o‘qitishni yo‘lga qo‘ysin; qabul tizimini raqamlashtirgan holda yiliga 1800 nafar fuqarolarni kasbga tayyorlash va ish bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

12. Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov, Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona tuman bo‘limi (M.Alijonov) bilan birgalikda, oliygohlardagi talabalarning ta’til paytida ishlash va amaliyot o‘tash maqsadida xorijiy davlatlarga borib-kelish xarajatlari uchun 1000 dollargacha ssuda ajratish tartibi joriy qilinayotganligini inobatga olib, 2025-yilda 1 ming nafar talabani ta’til davomida rivojlangan xorijiy davlatlarga ishga yuborishni tashkil qilsin.

13. Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (M.Alijonov) bilan birgalikda bir hafta muddatda “Tilga o‘qitish markazi” tashkil qilish maqsadida tumanda kamida 150 ta o‘ringa mo‘ljallangan 1 ta bo‘sh turgan binoni aniqlash, binoni ta’minlash va zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash choralarini ko‘rib, “Tilga o‘qitish markazi”ni tashkil qilsin.

14. Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (SH.Yuldashev) bilan birgalikda bir hafta muddatda hududlarda xususiy o‘quv markazlari, xususiy maktablar tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida dastur ishlab chiqib, tuman hokimiga kiritgin.

Bunda, yangi qabul qilingan qarorlar asosida berilayotgan imtiyoz va preferensiyalar to‘g‘risida tashabbuskor tadbirkorlarga keng tushuntirish ishlarini olib borsin.

15. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari O.Abduraximov va I.Toshpo‘latov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



**ABDURAXIMOV
OTABEK.NEMATOVICH**

Fargʻona tuman hokimining
2025-yil 9-yanvardagi
19-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Fargʻona tumanida 2025-yilda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini amalga oshirish, xorijda ishlash istagida boʻlgan fuqarolar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari boʻyicha

YOʻL XARITA

No	Chora-tadbirlar rejasi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Masʼul ijrochilar
1	Umumtaʼlim maktablarining boʻsh turgan bino va inshootlarida xorijiy til boʻyicha oʻquv kurslarini tashkil etish.	<ol style="list-style-type: none">1. Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi tizimidagi umumtaʼlim muassasalarining boʻsh turgan bino va inshootlarini xatlovdan oʻtkazish.2. Umumtaʼlim muassasaning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xorijiy til boʻyicha oʻquv kurslarini tashkil etish yuzasidan taqsimotni amalga oshirish.3. Hudud kesimida xorijiy til oʻquv kurslari tashkil etiladigan maktablar roʻyxatini shakllantirish.4. Maktablardagi boʻsh turgan oʻquv xonalarini xorijiy til oʻquv kurslari tashkil etish uchun nodavlat oʻquv muassasalariga (bepul) shartnoma asosida berishni tashkil etish.	2025-yil mart 2025-yil mart 2025-yil mart Belgilangan muddatlarda	Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boʻlimi, tuman hokimligi
2	Fargʻona tumanida 63 ta umumtaʼlim muassasalarida xorijiy tillarni oʻqitish	<ol style="list-style-type: none">1. Tasdiqlangan maktablar rahbariyati, oʻqituvchilari,	2025-yil mart	Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi,

	bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish.	<p>maktablardagi kambag'al oila farzandlari bo'lgan o'quvchilar, ularning ota-onalari hamda mahalliy tadbirkorlar uchun targ'ibot-tashviqot va tushuntirishlar tashkil etish.</p> <p>2. Mazkur maktablardagi kambag'al oilalarning farzandlarining xorijiy tillarga qiziqishlarini aniqlash maqsadida so'rovnomalar o'tkazish.</p> <p>3. O'quvchilarning qiziqishlari hamda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda nodavlat ta'lim tashkilotlari hamda yakka tartibdagi repetitorlik xizmatlarini maktablarga jalb etishga ko'maklashish.</p>	Doimiy	Savdo-sanoat palatasi hududiy bo'limi, tuman hokimligi
3	Tumanda umumta'lim maktablarida o'quvchilarni axborot texnologiyalari va dasturlash bo'yicha o'qitish.	<p>1. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni axborot texnologiyalari va dasturlash bo'yicha o'qitishga mutaxassislarni jalb etish.</p> <p>2. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalari kasblariga (kompyuter operatori - kopirayter, C++ dasturchi, java dasturchi, php dasturchi, python dasturchi, java dasturchi, web dasturchi, android dasturchi, kompyuter va dasturiy ta'minotlar hamda ofis jihozlarini o'rnatuvchi va ularga texnik xizmat ko'rsatuvchi, grafika muharriri, fotomuxarrir, web dizayner,</p>		Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Aloqa bo'limi Savdo-sanoat palatasi hududiy bo'limi, Tuman hokimligi

		arxitektura dizayneri, 2D va 3D modellashtirish (3D MAX, AutoSad)) o'qitish.		
4	Xorijda ishlayotgan mehnat migrantlari bilan doimiy muloqot o'rnatib, ish va yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tizim yaratish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tumanda mehnat migrantlari ko'p joylashgan davlatlar va hududlar bo'yicha "migrantlar geografiasini" shakllantirish. 2. Mehnat migrantlari holidan xabar olish, yashash va ish sharoitlarini yaxshilashga yordam berish, xorijda o'qitishni tashkil etish va "sayyor qabullar" tashkil etish maqsadida chet davlatlarga xizmat safariga boradigan hudud mas'ullaridan iborat ishchi guruhlar shakllantirish 	2025-yil yanvar	Tuman hokimligi va Mahallalar uyushmasi
5	Xorijda ishlash istagida bo'lgan nomzodlari aniqlash, ular bilan manzilli ishlash bo'yicha "Xorijga ish-mahalladan" tamoyili asosida tizimli ish tashkil yetish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mahalla yettiligi tomonidan xorijda ishlash istagida bo'lgan nomzodlar ro'yxatini shakllantirish. 2. Nomzodlarni "Raqamli mahalla" elektron platformaga kiritib borish. 3. Nomzodlarning kasbi, til bilish darajasi, ish tajribasi va boshqa imkoniyatlaridan kelib chiqib, xorijda munosib ish taklif etish. 4. Xorijda ishlash uchun chet tili va (yoki) kasb-hunar o'rganish istagida bo'lgan nomzodlarni yashash manziliga. yaqin hududlardagi o'quv markazlariga jalb etish. 	doimiy	Kambag'allikni qiskartirish va bandlik bo'limi, Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi, Xotin-qizlar bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi,
6	Migratsiya agentligi tomonidan real vaqt rejimida xorijiy ish beruvchilar	1. Hamkorlik o'rnatilgan xorijiy ish beruvchilari mavjud vakant ish	doimiy	Kambag'allikni qiskartirish va bandlik

	<p>tomonidan taqdim etilgan vakant ish o‘rinlari va ularga qo‘yilayotgan talablar haqidagi ma’lumotlarni fuqarolarga yetkazish.</p>	<p>o‘rinlariga talabnomalar bo‘yicha davlatlar kesimida ma’lumot tayyorlash (<i>ish joyida yaratilgan sharoitlardan foto va videolavhalar, oylik ish haqqi, nomzodlarga qo‘yilgan talablarni aks ettirish va hokazo</i>).</p> <p>2. Tayyorlangan ma’lumotlarni Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi ga, Mahallalar uyushmasi hududiy bo‘limi ga, Xotin-qizlar bo‘limi ga, Yoshlar ishlari agentligi hududiy bo‘limi ga taqdim etib borish.</p> <p>3. Mavjud bo‘sh ish o‘rinlari xususida tayyorlangan ma’lumotlarni tuman (shahar)lar, shuningdek, mahallalar bo‘yicha katta auditoriyaga ega bo‘lgan ijtimoiy tarmoq messenjerlari (<i>telegram, instagram, feysbuk, yutub va b.</i>) orqali e’lon qilib borish.</p>		<p>bo‘limi, Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi, Xotin-qizlar bo‘limi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi</p>
--	---	---	--	---

Farg‘ona tuman hokimining
2025-yil 9-yanvardagi
19-11-163-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona tuman hokimining
2025-yil 9-yanvardagi
19-11-163-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Tumanda “Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish va migratsiyaga doir
muammolar yechimi” bo‘yicha
ShTAB TARKIBI**

№	F.I.Sh	-	Lavzoimi
1.	O.Abduraximov	-	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, shtab rahbari
2.	I.Toshpo‘latov	-	Tuman hokimining yoshlar ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, shtab rahbari o‘rinbosari
3.	J.Xasanov	-	Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
4.	N.Sobirov	-	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
5.	O.Akbarov	-	Tuman Savdo-sanoat palatasi bo‘limi boshlig‘i
6.	M.Alijonov	-	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
7.	D.Xomidov	-	Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i
8.	Sh.Yuldashev	-	Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i
9.	X.Xoshimov	-	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, ishchi guruh kotib